

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**“ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI”**

April 22, 2025

Toshkent
“Nurafshon business”
2025

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makpal Orazbek (Qozog‘iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima‘i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan “Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko‘lami, tipologik talqinlari, tahliliy xulosalari bilan o‘ziga xosdir. To‘plam to‘rt bo‘limdan tashkil topgan. Har bir bo‘lim o‘zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o‘zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.**

© “Nurafshon business”, 2025.

UDC 845.711.05

KBK 133.585.3

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov,

Doctor of Philological Sciences, Academician

Editorial Board:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Turkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqo Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Gulnoz Khal-liyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The present conference proceedings, titled "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.

This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

© "Nurafshon business", 2025.

MUNDARIJA

- | | | |
|----|--|----|
| 1. | <i>Shuhrat SIROJIDDINOV.</i>
IKKI BUYUK – IKKI TURK (<i>Kirishso'z ornida</i>) | 15 |
|----|--|----|

I SHO'BA NAVOIY VA RUMIY: BADIYYAT VA TIPOLOGIYA

- | | | |
|-----|---|-----|
| 2. | <i>Узоқ ЖЎРАҚҲҲОВ.</i>
МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ | 20 |
| 3. | <i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.</i>
“ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ | 48 |
| 4. | <i>Сувон МЕЛИ.</i>
“ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И | 57 |
| 5. | <i>Gulnar Agig JAFARZADE.</i>
THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVAI'S PERSIAN RUBAIYAT | 68 |
| 6. | <i>Münevvər TEKCAN.</i>
ALI SHIR NAVA'I'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE | 79 |
| 7. | <i>Сергей НИКАНОВ.</i>
К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ | 90 |
| 8. | <i>Мақсуд АСАДОВ.</i>
НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ | 99 |
| 9. | <i>Шоира АҲМЕДОВА.</i>
АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА | 107 |
| 10. | <i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.</i>
ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БУЮК БРИТАНИЯДА САҚЛАНАЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА | 116 |

	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Айнұр АНАПИНА.</i>	
11.	ӘДЕБИЕТТЕГІ ИНТЕРМӘТІНДІЛІК: АБАЙ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫҢ ӘЛІШЕР НАУАИМЕН САБАҚТАСТЫҒЫ	121
	<i>Сайфиддин РАФИДДИНОВ.</i>	
12.	НАВОЙИ ВА РУМИЙ ИЖОДИНИНГ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ МАММОЛАРИ	128
	<i>Dilnavoz YUSUPOVA.</i>	
13.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAMARQAND TALQINI	137
	<i>Илҳом ҒАНИЕВ.</i>	
14.	ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ВА АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	146
	<i>Islamjon YAKUBOV.</i>	
15.	JALOLIDDIN RUMIY MEROSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI	153
	<i>Gulbahor ASHUROVA.</i>	
16.	TARIXIY SHAXS TASVIRI: NAVOIY OBRAZI	162
	<i>Qahramon TO'XSANOV, Muhammadamin JURAQULOV.</i>	
17.	RUMIY VA NAVOIY IJODIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI	170
	<i>Mahmadiyor ASADOV.</i>	
18.	HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY	174
	<i>Sobit AVEZOV.</i>	
19.	BOQIYLIKKA DAXLDOR BITIKLAR	174
	<i>Адҳамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
20.	АЛИШЕР НАВОЙИНИНГ ТУРКИЯЛИК ШОГИРДИ	182
	<i>Насиба БОЗОРОВА.</i>	
		187
21.	ҲАЗРАТИ МАВЛОНОНИНГ “МАЖОЛИСИ САБЪА” (“ЕТТИ МАЖЛИС”) АСАРИДА НАЪТ	191
	<i>Yulduz ZIYAYEVA.</i>	
22.	“OSHIQ-MA'SHUQA-RAQIB” OBRAZI GENEZISI	198
	<i>Olmos XURRAMOV.</i>	
23.	ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD”DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI	205
	<i>Hasamuddin HAMDARD.</i>	
24.	AMIR ALISHER NAVOIYNING HEROT MAKTABINING TUSHUNCHALARINI TEMURIYLAR SIYOSATIGA O'TKAZISHDAGI ROLI	210

25.	<i>Leyla HƏSƏNOVA.</i> AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATINDA ROMANTİZM	220
26.	<i>Marifat RAJABOVA, Madina IBOTOVA.</i> RUMİY VƏ NAVOIY LIRIKASIDA KÖ'NGİL METAFORASI	226
27.	<i>Sherxon QORAYEV.</i> MAVLAVİY "GİRDİ DARVESHLAR"NING RAQSU SAMO' MAJLISLARI	231

II SHO'BA SHARQ ADABIYOTIDA POETIKA MUAMMOLARI

28.	<i>Улугбек ХАМДАМ.</i> ГЛОБАЛ ДУНЕДАГИ ЙЎЛЧИ ЮЛДУЗЛАР	244
29.	<i>Zafer TOPAK.</i> ALİ ŞİR NEVÂÎ'NİN TÜRKÇE DİVANLARINDAKİ ŞİİRLE İLGİLİ BENZETMELER VE BUNLARIN ŞAİRİN POETİKASINA KATKILARI	254
30.	<i>Gulnoz XALLIYEVA, Adiba MA'DIYEVA.</i> ZAMONAVİY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA BAHOR OBRAZINING BADIİY TALQINI	266
31.	<i>Dilrabo QUVVATOVA.</i> MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI	275
32.	<i>Вусала НАСИБОВА.</i> КОМПЛЕКС НОВРУЗОВСКИХ ОБРЯДОВ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	279
33.	<i>Диляра ХАЛИЛОВА.</i> К ВОПРОСУ О МЕЖКУЛЬТУРНОМ ПОТЕНЦИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НАВОИ И ПУШКИНА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	285
34.	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Әнуар ЗЕРДЕ.</i> НҮРЛАН МӘУКЕНҰЛЫ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫ ЖӘНЕ АБАЙ ДӘСТҮРІ	289
35.	<i>Олим ОЛТИНБЕК.</i> РАУФ ПАРФИ ШЕЪРЛАРИНИНГ ВАЗН ХУСУСИЯТЛАРИ	297
36.	<i>Farhad RAHİMİ.</i> FERAĞÎ'NİN MİFTAHU'L-LÜGAT SÖZLÜĞÜNÜN DÜZENİ VE EL YAZMASI ÜZERİNE	312

37.	<i>Orzigul HAMROYEVA.</i> QOʻFIYAGA OID BIRLIK LARNING QIYOSIY TAHLILI	325
38.	<i>Ainisa AKMATOVA, Makhlie NAZAROVA</i> THE SPECIFIC PECULIARITIES OF THE EMAGE "WOMAN" IN THE EPIC MANAS AND IN ALISHER NOVOIY'S WORKS	333
39.	<i>Тоғжол НОРОВ.</i> АЛИШЕР НАВОИЙ БОРЛИҚ ФАЛСАФАСИДА КОСМОС, МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛҚИНИ	341
40.	<i>Rustam SHARIPOV.</i> MAHMUDHO'JA BENBUDIY VA ABDURAUF FITRATNING MILLIY DAVLATCHILIK HAQIDAGI QARASHLARI	353
41.	<i>Feruza BURXANOVA.</i> BADIY SO'Z JILOSI	370
42.	<i>Ольга ЧИЖИКОВА, Ирина ЯНОВСКАЯ.</i> ЧЕРТЫ КОСМИЗМА В СТИХОТВОРЕНИИ НИКОЛАЯ КЛЮЕВА "БЕЛАЯ ИНДИЯ" И В НЕКОТОРЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ АВТОРОВ	377
43.	<i>Komiljon HAMROYEV.</i> SHARQ NIHOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI	386
44.	<i>Ўилуффар УМАРОВА.</i> УЛЖАС СУЛАЙМОНОВ ШЕЪРИЯТИ	393
45.	<i>Zebiniso BEKMURADOVA.</i> PAREMIYADA XIAZM	399
46.	<i>Азамат ХАЙРУЛЛАЕВ.</i> НОРМУРОД НОРҚОБИЛОВ ҲИКОЯЛАРИДА ОНОМАСТИКА	404
47.	<i>Салават АЮПОВ.</i> ОТЗВУКИ РУССКОЙ КЛАССИКИ В ЧЕХОВСКОМ ЭТЮДЕ "БЕЗНАДЕЖНЫЙ"	422
48.	<i>پوهنپار امرالله محمدی</i> بررسی زبان شناسانه استعاره مفهومی عشق در اشعار فارسی نوایی	429
49.	<i>Tozagul MATYOQUBOVA.</i> G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON VA KECINMANING POETIK IFODASI	437
50.	<i>Ирина ЯНОВСКАЯ, Ольга ЧИЖИКОВА.</i> СКУЛЬПТУРНЫЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.С.ПУШКИНА	445

51.	<i>Шохрат Нусрат МАМЕДОВА.</i> ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СЕМАНТИКА ДЕТСКИХ ДРАМ МИРВАРИД ДИЛЬБАЗИ	453
52.	<i>Umida ABDULLAYEVA.</i> "SHAYX SAN'ON" QISSASIDA USTOZ-SHOGIRD MASALASI	466
53.	<i>Yorqinoy NASIRDINOVA.</i> ALISHER NAVOIY OBRAZI FRANSUZ ADABIY VA TARIXIY TAFAKKURIDA	470
54.	<i>Sayid Nurulloh AMINYOR.</i> ALISHER NAVOIY MA'RIFATNING PORLOQ QUYOSHI	478
55.	<i>Otabek BABAYEV, Munisa BOLTAYEVA.</i> ÜBERSETZUNGSMETHODE VON TECHNISCHEN TEXTEN	491
56.	<i>Нуриддин УБАЙДУЛЛАЕВ.</i> "ТАНАЗЗУЛ" РОМАНИДА МУСУЛМОНҚУЛ МИНГБОШИ ОБРАЗИ	496
57.	<i>Matluba MAMADIYAROVA.</i> "ALPOMISH" VA "BEOVULF" EPOSLARIDA AYOL FENOMENI	503
58.	<i>Mahbuba QARSHIYEVA.</i> ALISHER NAVOIY: MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK	508
59.	<i>Feruza SAPAYEVA.</i> MAXTUMQULI ASARLARINING TURKIY TILLARDAGI TARJIMALARI VA ULARNING TADQIQI	514
60.	<i>Bahor SHUKUROVA.</i> BADIIY ADABIYOTDA RAMZIY OBRAZLAR TALQINI	522
61.	<i>Nodira SAIDOVA.</i> "NAVOIY VA ILOHIYOT"DA "GERMENEVTIK DOIRA"DAN FOYDALANISH	530
62.	<i>Sevinchoy YOQUBOVA.</i> XX ASR BOSHLARI O'ZBEK SHE'RIYATINING YANGILANISH OMILLARI	534
63.	<i>Нилуфар ДИЛМУРОДОВА.</i> АСАД ДИЛМУРОД ЭССЕЛАРИНИНГ ГЕНЕТИК АСОСЛАРИ, УЛАРДА МУАЛЛИФ ИФОДА УСЛУБИ ВА БАДИИЙ- ЭСТЕТИК КОНЦЕПЦИЯСИ	541
64.	<i>Nodira XUDOYNAZAROVA.</i> JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA	547

65.	<i>Maftuna NORQULOVA.</i> "HALI HAYOT BOR..." QISSASIDA QAHRAMON KONSEPSIYASI	552
66.	<i>Dilnavoz BOYZOQOVA.</i> "YUSUF VA ZULAYHO" QISSASIDA OBRAZ TALQINI	560
67.	<i>Махфуззоҳон ХОМИДОВА.</i> "БАДОЙИЪ УЛ-БИДОЯ" ДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	568

III SHO'BA NAVOIY VA RUMIY IJODIDA MA'RIFAT VA MILLIYAT MASALALARI

68.	<i>Nafas SHODMONOV.</i> "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI SYUJETI VA G'OYASINI SHAKLLANTIRGAN BA'ZI OMILLAR	578
69.	<i>DR. KEMAL YAVUZ ATAMAN.</i> OSMANLI DEVLETİ'NİN MANEVİ VE HAKİKİ MÜESSİSİ MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN-İ RÛMÎ	584
70.	<i>G'ayrat MURODOV, Shahlo SA'DULLAYEVA.</i> MURSHID VA MURID MUNOSABATI	592
71.	<i>Нусратулло ЖУМАХЎЖА.</i> ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ "МАШАВИЙИ МАЪНАВИЙ" АСАРИНИНГ КИРИШ ҚИСМИ МАЗМУНИГА ЧИЗГИЛАР	602
72.	نویسنده: پروفسور دکتر فضل الرحمن فقیہی ہروی نقش امیر علیشیر نوابی در تمدنآفرینی دورہ تیموریان ہرات	607
73.	<i>Darmonoy O'RAYEVA.</i> RUMIY VA HOZIRGI O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA DUNYO TA'RIFI	619
74.	<i>Ulkar BAKHSHIYEVA.</i> THE ARTISTIC-AETHETIC FEATURES OF THE MYTHOLOGICAL APPROACH IN NIZAMI GANJAVI'S POEM "ISKANDARNAME" (IN THE CONTEXT OF LEGENDS RELATED TO KHIDR)	624
75.	بشیر احمد قرداش هصالح	634
76.	<i>Odiljon AVAZNAZAROV.</i> NAVOIY DOSTONLARIDA "QADAM" METAFORASI	642

	<i>Toji NOROV.</i>	
77.	ALISHER NAVOIY FALSAFIY MEROSINING ILOHIY-MA'RIFIY VA MAFKURAVIY ASOSLARI	649
	<i>Saodat MUMINOVA.</i>	
78.	AQL VA IDROK O'RTASIDAGI MUVOZANAT	662
	<i>Мустафа БАЙЭШАНОВ.</i>	
79.	“ПЯТЕРИЦА” НАВОИ В СОКРОВИЩНИЦЕ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	667
	<i>زینب نوروز علی ؛ شادمحمد سہاک</i>	
80.	جاہگاہ عقل در اشعار امیر نظام الدین علیشیر نوایی	671
	<i>Usmon QOBILOV.</i>	
81.	ON THE INTERPRETATION OF THE TRUE OF HUMANITY AND THE UNIVERSE IN ARTISTIC CREATIVITY	678
	<i>دکتر نورالرحمن ناصح</i>	
82.	انسان کامل و انسان شناسی از نظر علی شیر نوایی و مولانا با رویکرد تطبیقی	687
	<i>Адҳамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
83.	АЛИШЕР НАВОИЙ ҲАҚИДА ТУРК ДОСТОНИ	693
	<i>Hamza ATEŞ, Kemal ATAMAN.</i>	
84.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA IJTIMOİY O'ZGARISHLAR	700
	<i>Мавжуда НУРИДДИНОВА.</i>	
85.	“БОР КИТОБИ, ЛЕК ПАЙҒАМБАР ЭМАС...”	710
	<i>Shohista NIYOZOVA.</i>	
86.	MILLIY QADRIYATNING TAMAL TOSHI	720
	<i>Duygu KOCA.</i>	
87.	ALİ ŞİR NEVÂÎ'NİN ESERLERİNDE AHLAKİ DEĞERLER	727
	<i>Iroda ISHONXANOVA.</i>	
88.	XX ASR 40-YILLARIDA NAVOIYSHUNOSLIK	734
	<i>Ойдин ТУРДИЕВА, Ойша ШУКУРОВА.</i>	
89.	РУМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТИНЧЛИК ҒОЯСИ ТАЛҚИНИ	734
	<i>Nargiza SHOALIYEVA.</i>	
90.	RUMIY VA NAVOINING ISHQQA OID QARASHLARI	741
		747

IV SHO'BA
NAVOIY VA RUMIY
YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

91.	<i>Malika SUYUNOVA.</i> HAMZA VA XALQ TEATRI	766
92.	<i>Laylo TO'YCHIYEVA.</i> "ULISS" ROMANIDA TRAGIK VAZIYAT XRONOTOPI	772
93.	<i>Nilufar HAITOVA.</i> HAMID OLIMJON – NAVOIYSHUNOS	777
94.	<i>Shaxnoza TURSUNOVA.</i> SIZIF OBRAZI: TURFA TALQINLAR	781
95.	<i>Madina VAHOBOVA.</i> "NAVOIY KIRMAGAN UYLAR QORONG'U"	786
96.	<i>Sayohat ARZIQULOVA.</i> FATMA SHENGIL SUZAR IJODIDA RUMIY AN'ANALARI	794
97.	<i>Osiyo SIDDIQOVA.</i> KOMIZM XUSUSIDA BIR-IKKI SO'Z	802
98.	<i>To'lg'anoy QULJANOVA.</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA RUMIYONA OHANGLAR <i>Sabinabonu BERDIYEVA.</i>	810
99.	"ADABIYOTSHUNOSLIK LUG'ATI"NING ELEKTRON MOBIL ILOVASINI YARATISH XUSUSIDA	815
100.	<i>Huriniso MENGLIYEVA.</i> DUNYONING AZALIY SAVDOSI	819
101.	<i>Баҳодур ЖОБЛИЕВ.</i> УНИВЕРСАЛ ОБРАЗЛАР КЎЛАМИ	825
102.	<i>Zilola JO'RAYEVA.</i> NAVOIY VA RUMIY ASARLARIDA TASAVVUF TIMSOLLARI	829
103.	<i>Diyora O'KTAMOVA.</i> ALISHER NAVOIY FARDLARINING O'RGANILISHI	834
104.	<i>Hediye Zeynep KÖŞEK.</i> ALİ ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN RUMÎ'NİN ESERLERİNDE TAKVÂ	839
105.	<i>Selenay ŞAHİN.</i> ALİ ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ'NIN SANATSAL VE DÜŞÜNSEL YAKLAŞIMLARININ MİMARİ ESERLER ÜZERİNDEKİ ETKİSİ: SOSYO-KÜLTÜREL BİR DEĞERLENDİRME	849

	<i>Nodirjon G'AFUROV, Shahnoza YO'LDOSHEVA.</i>	
106.	NAVOIY "XAMSA"SI VA RUMIY "NAYNOMA"SIDA "NAY" TIMSOLI	856
	<i>Noila ROXATALIYEVA.</i>	
107.	"DEVONA" VA "JUNUN" TUSHUNCHALARI TALQINI	861
	<i>Sema DÜLGAR.</i>	
108.	ŞAİR FÂTİMA HANIM VE KÜTAHYA MEVLEVÎHÂNESİNE ETKİLERİ	866
	<i>İrem ERDEM.</i>	
109.	ALİ ŞİR NEVAÎ'NİN MUHAKEMETÜ'L-LUGATEYN ADLI ESERİNDE EŞANLAMLILIK	872
	<i>Dilfuza ISMOILOVA.</i>	
110.	"BİR AYOL HAYOTIDAN 24 SOAT" NOVELLASINING KOMPOZITSION TAHLILI	881
	<i>Beyza ÖZER.</i>	
111.	MÊKÂNDAN LÂMEKÂNA: ALİ ŞİR NEVAÎ VE MEVLÂNÂ	888
	<i>Ahmet Berat COŞKUN.</i>	
112.	MUHÂKEMETÜ'L-LUGATEYN'DE GEÇEN İŞ/HAREKET BILDİREN FİİLLER VE BU FİİLLERİN KUZEYBATI/KIPÇAK TÜRK LEHÇELERİNDEKİ GÖRÜNÜMLERİ	897
	<i>Aziz NORQULOV.</i>	
113.	"NASOYIM" PINJIDAGI UMR	910
	<i>Saodat FAYZIYEVA.</i>	
114.	JADID MATBUOTIDA NAVOIY IJODI TADQIQI	916
	<i>Jobir ISMATILLOYEV.</i>	
115.	MUNIS IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI	924
	<i>Dovud XO'JAQULOV.</i>	
116.	NAVOIY VA RUMIY IJODIDA SABR TUSHUNCHASI	930
	<i>Nazokat G'OFUROVA.</i>	
117.	BİLGAMISH – BUYUK SHARQNING QADIM DURDONASI	934
	<i>Nargiza SHAMIYEVA, Jazira TULEGENOVA,</i>	
	<i>Nargiza XOLBOBOYEVA.</i>	
118.	COMPARATIVE STUDY OF MEANING EXPANSION AND NARROWING OF QUALITATIVE ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK	938
	<i>Go'zal OMONOVA.</i>	
119.	JALOLIDDIN RUMIY HIKOYALARIDA XULQ-ATVOR MASALASI	944
	<i>Madina TURSUNOVA.</i>	
120.	MARLO VA SHEKSPIR: IJODIY PARALLELLAR VA FARQLAR	949

121.	<i>Shodiya TURSUNALIYEVA.</i> "ABU RAYHON BERUNIY" DRAMASIDA FOJIAVIY VAZIYATLAR TALQINI	952
122.	<i>Gulzoda SAFAROVA.</i> ERKIN A'ZAMNING "ANOYINING JAYDARI OLMASI" HIKOYASIDA IDILLIYAVIYLIK	957
123.	<i>Nozima KARIMOVA.</i> YOVUZ BAHODIR O'G'LINING "YONAYOTGAN BUXORO" ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT	964
124.	<i>Suhrobjon ZIYODOV.</i> YOSHLAR SHE'RIYATIDA NAVOIYGA MUROJAAT	970
125.	<i>Sherzod USMONOV.</i> ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA METAFORIK OBRAZLAR	977
126.	<i>Нармин БАБАЕВА.</i> ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ СЕМАНТИКА МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ	983
127.	<i>Yüsra KARAÇA.</i> HZ. MEVLANA'NIN YOLU VE HAT SANATI	993
128.	<i>Lobar BERDIYEVA.</i> SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA RAMZIYLIK	999
129.	<i>Gulsevar MAMANOVA.</i> "YUSUF VA ZULAYHO": GENEZIS MASALASI	1006
130.	<i>Shahzoda VALIJONOVA.</i> NAVOIY E'TIROF ETGAN XAMSANAVIS	1014
131.	<i>Dilrabo HAYDAROVA.</i> O'ZBEK-TURK HIKOYALARIDA KOMIKLIK	1018
132.	<i>Saida DAVRONOVA.</i> ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING O'ZBEKISTON KINOFOTOFONO MILLIY ARXIVI HUJJATLARIDA YORITILISHI	1022
133.	<i>Mirjalol SODIQOV.</i> "BUYUKLAR TUHFASI" – MUMTOZ ADABIYOT TARIXIGA DOIR TADQIQOT	1029
134.	<i>Muhayyo ISTAMOVA.</i> AYOL OBRAZI JOZIBASI	1036
135.	<i>Iroda ESHMURADOVA.</i> YANGI DARSLIKLAR HAQIDA	1041

136.	<i>Ruxsora UNAROVA.</i> AHMAD A'ZAM HIKOYALARIDA "JUMBOQ" TASVIRI	1048
137.	<i>Maftuna USMONOVA.</i> NAVOIYDA "SHOH" VA "GADO" TUSHUNCHALARI TALQINI	1052
138.	<i>Nigora TOSHMURODOVA.</i> FURQAT VA MA'RIFATPARVARLIK G'OYASI SHARIF YUSUPOV TALQINIDA	1057
139.	<i>Muxlisa ASHIRMATOVA.</i> NAVOIY VA RUMIY: MUSHTARAK DIDAKTIKA	1068
140.	<i>Dilnavoz NAJIMOVA.</i> MUMTOZ TURKIY ADABIYOTNI BOLALAR ONGIGA YETKAZISH AMALIYOTIGA DOIR	1074
141.	<i>Parvina NARZULLOYEVA.</i> XAMSA DOSTONLARIDA UCHRASHUV MOTIVINING O'RNI	1083
142.	<i>Roza QURBONOVA.</i> NAVOIY VA RUMIY ADABIY MEROSINING BOSHQA TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI	1090
143.	<i>Nigina FAYZULLAYEVA.</i> A.S.PUSHKIN VA F.M.DOSTOYEVSKIY ROMANLARIDA EPISTOLYAR JANRNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI	1097
144.	<i>Ayşe ÖZTOKLU, Sümeyye ÇAĞLAR YILMAZ.</i> MEVLÂNÂ CELÂLEDDÎN RÛMÎ'NİN MESNEVÎ'SİNDE HZ. MUSA KISSASINDAN KESİTLER	1104

Islamjon YAKUBOV,
professor, filologiya fanlari doktori
(ToshDO'TAU, O'zbekiston)

Doi. 10.52773/tsuull.conf.2025/FGGC8303

JALOLIDDIN RUMIY MEROSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI

Аннотатсия. Мақолада Rumi y merosi va zamonaviy o'zbek roman-chiligi haqida so'z boradi. Omon Muxtor va Xurshid Do'stmuxammadning romanlari tahlilga tortiladi.

Калит сўзлар: Rumi y, Navoi y, Omon Muxtor, Xurshid Do'stmuxammad, roman, badiiyat.

Abstract: The article discusses the legacy of Rumi and modern Uzbek novelism. The novels of Amon Mukhtar and Khurshid Dostmuhammad are analyzed.

Keywords: Rumi, Navoi, Amon Mukhtar, Khurshid Dostmuhammad, novel, fiction.

O'zbek adabiyotshunosligida uzoq yillar davomida G'arb estetikasi va badiiyati tamoyillari bilan zamonaviy adabiy jarayon hodisalarini bog'lashga kuchli intilish mavjud bo'lib keldi. Shubhasiz, biz bu harakatning ijobiy jihatlarini inkor etmaymiz. Ammo shuni unutmaslik kerakki, milliy istiqlo l davrida o'zbekning olam hodisalarini qabul qilish va unga yondashish tarzida sezilarli siljish sodir bo'ldi. O'zbek romani o'z taraqqiyotining oldingi bosqichlariga nisbatan teranroq darajada milliylashdi. Plyuralistik yangicha ijodiy tafakkur badiiy ijod tarzida ham ko'p tarmoqlilikni keltirib chiqarganligi endilikda adabiy-nazariy izlanishlarimizning asosini jonli adabiy jarayon tajribalarini o'rganish, romanchiligimiz yetakchi tamoyillarini milliy va jahoniy asoslarda tadqiq etish zaruriyatini yuzaga chiqardi.

Ijtimoiy va badiiy ong sog'lomlashuvi, fikrlar plyuralizmi tufayli adabiy hodisalar qayta idrok etila boshlandi. Millat nazaridan yashirin bo'lgan ko'plab asarlarning estetik olami inkishof etildi. Natijada, olam va odamni estetik idrok etish, tasvirlash, poetik ijodning vazifalari bobidagi qarashlar ham ancha kengaydi. Adabiyotning vorisi y aloqadorligi chuqurlashdi. Umumo'zbek adabiyoti yaxlit bir jarayon sifatida anglandi. Milliy ma'naviyatimiz ildizlari va islom tasavvufi asoslari bilan chuqurroq tanishish

imkoni yuzaga chiqdi. Tasavvuf nazariyasi va tarixi, tasavvuf va badiiy ijod muammolari, tasavvufiy adabiyotning shakllanishi, taraqqiyoti hamda tasavvuf estetikasi, mumtoz poetika asoslari masalalari o'rganildi.

Yuzlab qo'lyozmalar ilmiy iste'molga kiritildi. Ular orasida qadimgi mif va afsonalardan tortib "Avesto", "Xuastuanift", "Irq bitigi", "Oltin yoruq" dostonigacha; Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-jome' as sahih", Zayniddin Muhammad G'azzoliyning "Kimyoi saodat", Yusuf Hamadoniyning "Rutbatul-xayot", Xoja Ahmad Yassaviyning "Faqrnoma", Faxruddin Ali Safiyning "Rashahotu aynil-hayot", Shayx Najmiddin Kubroning "Usuli ashara", Farididdin Attorning "Ilohiynoma", Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", Abul Muhsin Muhammad Boqirning "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband", Xoja Ahror Valiyning "Risolai volidiya", Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy", So'fi Ollohyorning "Maslakul-muttaqin", Is'hoq Bog'istoniyning "Tazkirai qalandaron" asarlarigacha uchratish mumkin. Shuning uchun ham umuman o'zbek adabiyoti, xususan, milliy romanchilik taraqqiyotini mazkur estetik qarashlar ta'siri doirasida izohlash orqali uning milliy-estetik hodisa ekanligini inkishof qilish mumkin.

Darhaqiqat, milliy istiqlol davrining yangilangan adabiy-estetik tafakkuri va bebaho ma'naviy meroslarimizning joriy imloda nashr etilishi romaniy tafakkur taraqqiyoti miqyoslarining mislsiz kengayishiga ham sezilarli ta'sir etdi. Zotan fikrimiz ravshanligi, ruhimiz bardamligi muazzam Sharq falsafasini nechog'lik o'zlashtirishimizga ham bog'liqdir. Mazkur fikr to'la ma'noda genial turk shoiri Jaloliddin Rumi merosiga ham daxldordir.¹ Zero biz uzoq yillar davomida insonning ma'naviy komillik yo'llari: tajrid va tavhid surat va ma'no, tavakkul va ittihad, g'ayb asrori va laduniy ilmlar mohiyati haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lmadik. Zotan Rumiyning tushuntirishicha, hikmat, ma'rifat va karomat Ollohning sevgan bandalariga ato etgan libosidir. Demak, fikrlovchi insongina o'zligini, Ollohini tushunadi. "Men" ligi bo'lgan "kichik olam"ni anglaydi. Inson olamiga bir makon va zamonning o'zida ham

1 Жалолитдин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Туркчадан Улубек Ҳамдам таржимаси, – Тошкент, "Янги аср авлоди", 2003 (Мақолада асосан, мазкур манбага таяниб фикр-мулоҳазалар билдирилди. И.Ё.)

ulug'vorlik, ham soddalik sig'ishib yashashi mumkinligini idrok etadi.¹

Omon Muxtor "Ishq ahli"² romanida badiiy zamindan hayotiy mantiq izlaydi. Navoiy yaratgan rubobiy she'riyat bag'ridan ko'ngil timsolini topadi. Shoir yaratgan lirik obrazlar sharhi orqali Navoiyning mushohada olamiga kirib boradi bu ShAXS haqidagi tasavvurlar tugalligini ta'minlaydi. Natijada xayoliy muhabbat falsafasi, lirik-dramatik lavhalar bag'ridagi jozibali ruhiy holatlar – ko'ngil kayfiyatiyu fuzun dardlarini mutasavvuf-valiylar e'tiqodi bilan chambarchas bog'lab idrok etadi. Navoiy suvratini tahayyulda yaratishdek mushkul vazifani ishtibohu hayronlik, umidu ishonch hislari qorishiqqligida uddalaydi. Misralar talqinidan komil va solim ma'nolar topadi. Adibning "Navoiy va rassom Abulxayr" roman dilogiyasini o'qir ekanmiz, Navoiy ko'z o'ngimizda go'zal xayolotiyu istak-mayllari, shirin xotiroti va mujrimona tazarrulari bilan namoyon bo'ladi.

Rumiyning ta'kidlashicha, o'z fikr-o'ylari bilangina band bo'lishni, Olloh yodi bilan o'zlikdan kechishni tilagan ko'ngilga hech bir surat sig'magay. Agar shu fikrdan kelib chiqilsa, Navoiyning Sulton Husayn intilishlari yo'lida kechayu kunduz xizmatda bo'lib, dunyo tashvishlari bilan yashagani ham Ollohning inoyati bilan sodir bo'lgan hodisa ekan. Chunki Mir Alisher qalbiga turkiy qavmning huzur-xalovati yo'lida molu jonini fido qilib, xayrli amallarga kamarbasta bo'lmoq orzusini Olloh solgandir. Navoiy o'z davrida yuksak maqom va mavqeda turgan bo'lsa, biror fursat ham moddiy dunyo ne'matlarining tuzoq ekanligini unutmagan. Shu maqomu mavqedan turibgina xalq ko'nglini nurlantirmoq mumkin deb bilgan edi. Qachonki ulug' shoir "xashaklar xirmaniga o't qo'ymoq"ni tilar, ya'ni qushlar tilida so'ylashni ixtiyor etar ekan, bu olimning bebaho duru javohirlari qadrlanmasligi va dengizdek chayqalayotgan dunyoda zulm haddan oshishi endilikda Sulton Husayn va zolim jamoa o'ziga ato qilingan ulug' inoyatdan maxrum

1 Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи Маънавий., Олти жилдлик. Форсийдан Жамол Камол таржимаси. – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг "Фан" ва Эрон Ислом Республикаси "Ал-Худо" халқаро нашриёти, Ўзбекистон – Техрон, 2003 2004.

2 Омон Мухтор. Ишқ аҳли. "Шарқ юлдузи", 2001., Биринчи фасл. – Б: 17-69.

qilingani nishonasi tarzida bo'y ko'rsatadi.

Demak, saroyini tark etgan Navoiy ko'ngil intilishlari sari yuz burgan va o'z libosiga – ilmi-hikmat va ma'rifat diyoriga qaytgan. Bu uning iltifotsizlik yo'lini tutganini anglatmaydi, balki o'z ruhiy holatidan ayrilmaslik tilagida balodan chekinganligini bildiradi. Zero endilikda Nizomiddin martabasidagi bu ulug' zot shunday bir maqomga yuksalgan ediki, bu ruhiy xolatga na Sulton Husaynning, na zamonaning intilishlari sig'mas edi. Zotan, Rumiylar hazratlari ta'kidlaganlariday, har bir inson ruhining o'zigagina xos xususiyat-hollari mavjud. Jism oziqlangani singari ruh ham mudom oziqlanmog'i lozim. Ikki do'st ko'zlagan manzillari, orzu-intilishlari muayyan nuqtalarda turfalashgani bois ham, bir-birlaridan ayriladilar. Illo inson bolasining yo'llari ruhiy darajasiga ko'ra turfa bo'ladi.

Xurshid Do'stmuxammadning "Bozor"¹ romanida muallif kitobxonni bozorni nojins maxluqlar bosganligi, omborga sichqon oralaganligidan ogoh etadi. Bunday holni bir jihatdan jahon adabiyotining nodir durdonalari, xususan Alber Kamyuning "Vabo"² romanidagi kasallik tarqatuvchi kalamushlarga taqlid tarzida ham izohlash mumkin. Ammo biz Rumiylarga murojaat qilsak, alloma inson zotining tabiatida minglarcha yirtqich hayvoniy mayllar mavjud. Uning tanasi bir qafas bo'lib, qushlik xislati qafasni yuqoriga tortsa, sichqonlik sifati tubanga sudraydi. Inson o'z istaklari yo'lida tabiatidagi mayllarni birlashtira olsagina maqsadga erisha oladi, - deya uqtirishini ko'ramiz.

Binobarin, bu holning zamonaviy o'zbek romanlarida aks etishi inson tabiatidagi tuban mayllar urchiotganligidan tug'ilgan ijodkor ruhiy bezovtaligi, Parvardigorning benihoya rahmatiga talabgor bo'lmagan qavmni tutgan yo'lining yanglish ekanligidan ogoh etmoq, jamiyatni ma'naviy-ruhiy yuksaltirmoq tilagidan tug'ilgan.

Rumiyning uqtirishicha, nuqsonlar mavjud ekan, asli yaralishida pokiza bo'lgan javhar – ruh ham g'uborli bo'ladi. Demak, Xurshid Do'stmuhammad "ombor" va "sichqon" vositasida oz orqali ko'p

1 Хуршид Дўстмуҳаммад. Бозор. "ШАРҚ" НМК Бош тахририяти, – Тошкент, 2000.

2 Альбер Камю. Бегоня. Рассказ и роман. – Тошкент "Ёзувчи", 1995, – Б: 84 – 314.

haqida kitobxonga tasavvur berishga intilgan. Xuddi shu ma'noda Asad Dilmurod "Fano dashtidagi qush"¹ romanida o'z-o'zi bilan band bo'lgan, o'zligidan yuksala olmagan, tuyg'ulari tarqoq va nuqsonli, ruhi zaif kimsa – Saidbek Umarni zulmat sahosidan yorug'likka olib chiqishni orzulaydi.

Rumiyning fikricha, inson zoti Yaratganning javharidandir. Inson ruhi ham sokin va sassiz dengizga o'xshaydi. Jism esa dengiz sohilida muqim. Yashirin bo'lgan sifatlar tashqi ta'sir vositasida oshkor bo'ladi, dilda ilg'anadi. Agar shu fikrga tayanilsa, To'xtamurod Rustamning "Kapalaklar o'yini"² romanidagi to'lqinlanib qirg'oqlariga urilayotgan, dengizni orzulagan, dengiz nafasini yashirishga quchog'i torlik qilgan Nasim ham nazarimizda zohiran benihoyalikka, erkinlikka va kenglikka talpinadi, botinan esa o'zining eski holini tanishga, yagona ummonning qatrasi ekanligini anglashga intiladi. Uning dilida barcha noqis tuyg'ulardan xalos bo'lmoq, erk hissining totini hamma bilan baham ko'rish istagi tug'yon uradi. Boshqacharoq aytganda, "Kapalaklar o'yini" romanida tafakkurning anglash va tushunishga bo'lgan jahdi, mushohadaning g'ayrati, tuyg'uning ulug'vorlikni his etmoq yo'lidagi talpinishlari ifodalangandir.

Ichki ma'naviy mijoz zaiflashsa, uni yaxshilash va quvvatlantirish uchun tashqi ta'sirga ehtiyoj paydo bo'ladi. O'z asliga qaytgan – quvvatlangan mijoz insonning ruhiy butunligini nazorat qiladi, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bunday vositali ta'sir vazifasini Asad Dilmurodning "Fano dashtidagi qush" romanida Saidbek Umarga Yodgor valiy, Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida Botir firqaga qabr toshiga bitik bituvchi o'taydi. Ammo har qanday holatda ham qahramonni ichki mayl, xayrixoh tuyg'u yetaklaydi. U o'ziga ta'sir etuvchi odamda shu paytgacha o'zgalarda uchratmagan bir jihatni, bir nurni ko'radiki, buning ta'sirida o'zining ichida ham azaldan mavjud va zulmat pardalari o'qishga imkon bermagan sifatlarni anglay boshlaydi, nigohi tiyraklashadi.

Rumiyning uqtirishicha, inson ikki narsadan iboratdir. Moddiy

1 Асад Дилмурод. Фано даштидаги куш. "ШАРҚ" НМАК Бош тахририяти, – Тошкент, 2002.

2 Тўхтамурод Рустам. Капалаклар ўйини. "ШАРҚ" НМК Бош тахририяти, – Тошкент, 2000.

dunyoning shahvat qo'zg'otuvchi ne'matlari, orzular inson tabiatidagi hayvoniy sifatlariga kuch beradi. Natijada kundan-kunga insonlik sifati zaiflasha boradi. Bilim, hikmat, Ollohning jamoli insonlik sifatlarining ozuqasidir. Bu ikki qarama-qarshi qutbdan biri Haqqa yaqinlashsa, ikkinchisi nafsga tomon intiladi. Shuning uchun ham insonning vujudida ikki shaxsiyat doimo kurashib keladi. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash ham aslida inson tabiatidagi mayllardan qay birini yoqlashi, zohir va botin haqidagi tushunchalarning turlicha anglanishidan kelib chiqqan. Jaloliddin Rumiy falakning aylanishini eng faol aql bilan bog'lar ekan, ezgulik g'alabasi uchun kurashni eng buyuk jang sanaydi. Inson zotini dunyoviy zavqlar bilangina qoniqmaslikka, ilm va amal sohibi bo'lishga undaydi.

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat"¹ romanida murshidsiz maqsadga intilgan Amir har qancha g'ayrat ko'rsatmasin, orzusiga yetolmaydi. Chunki uning harakatlarida vujud intilishlari aqlga muvofiq tarzda boshqarilmaydi. Boshqacharoq aytganda, Amirning harakatlariga na tashqaridan piri ustozning vositali, na ichkaridan aqlning ta'siri yo'q. Demak, insonning aqli ham vujudni boshqarishda valiylik rolini bajara oladi. Bunga Omon Muxtorning "To'rt tomon qibla" romanidagi Mirza G'olibning o'z-o'zini anglashida qilmishlarini taftish qilish orqali tizimli holatga o'ta olishini ko'rsatish mumkin.

Tashqi ta'sir orqali yoxud ichki intilishlarni boshqarish bilan o'zlikni anglash holatlarida ham anchagina zahmat, riyozat chekiladi. Ammo har ikkala holat ham hidoyat yo'liga kirmoq, ichki isyondan qutilmoq Ollohning inoyati – fazlu karamidan ekanligiga iymon keltirish orqali kechadi.

Ilohiyot ilmi tushuntirishicha, barcha odam zotida o'zi anglab yetmagan bo'lsa-da, asl makondan nimadir mavjudki, bu aql va jonga xush keladi, undan quvvat oladi. Jism qobig'ida g'uborlangan inson zotining asl mijozi Tangri rahmatiga ehtiyoj sezadi. Shu ma'noda, Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi"² 17

1 Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. "Минҳож", – Тошкент, 2004; Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. "ШАРҚ" НМАК Бош таҳририяти, – Тошкент, 2007.

2 Тоғай Мурод. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. "ШАРҚ" НМАК Бош таҳририяти, – Тошкент, 2001.

romani qahramoni Botir firqaning qabristonga kelishi oydinroq yo'l izlashdan bo'lak narsa emas. Zero insonning har bir qilgan harakati savol bo'lib, buning natijasida sevinch yoki qayg'u topishi javobdir. Odatda go'zal javob uchun yaratganga shukrona keltirilsa, yomon javob uchun tavba qilish lozim bo'ladi.

Demak, Botir firqa o'zini qiynagan ichki savollariga javob izlaydi. Uning dili eriydi va umri poyonida zavolli amallari uchun tazarru qilishi lozimligini anglaydi. Inkordan iqrorga tomon qadam tashlagan qahramon balolarning sababchisi sifatida o'z nafsini ayblaydi, kech bo'lsa-da uni tuzatishga qaror qiladi. Binobarin, endi uni iymon ahlidan sanash mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham Oллоhning so'zi – Qur'on ohanglariga g'arq bo'lish unga xush yoqadi. Bunday holni Rumiy: bu dunyoda mulk egasi – Yaratganning istagi bo'lur. Kimki ichki olamini nafsning vasvasalaridan poklasa, buzuq va yanglish tushunchalardan tozalasa, inoyatga doxil bo'lib, ofatlar ariydi,– deb tushuntiradi.

Demak, har kimning zavq olishi mutlaqo o'ziga xos tarzda kechadi. Har bir inson juda ulkan olam bo'lib, taqdir yetovida harakat qilgani bois, uning aql bilan tuzgan tadbirlari amalga oshmasligi ham mumkin. Shu ma'noda Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani qahramoni Botir firqaning ta'sirlanishi zohiriy xarakterga ega bo'lib, undagi nafs tahlikasi hali so'nmagan. Shuning uchun uning ruhiy holi va maqomini o'z murodlarini tamoman tark etgan yetuk zotlarning mohiyatni anglashdan so'ng oladigan zavqlari bilan tenglashtirish mumkin emas. Ammo Botir firqa o'z ko'ngliga safar qilib, qalbi tubidagi nurni topadi, xayotiy misollar vositasida ikki dunyo sirlari Yaratganning qudrati doirasida sodir bo'lishini mushohada etadi. Oyat uning ruhiga tanish ekanligi uchun ham taskin va huzur baxshida etadi, ishonchini mustahkamlaydi.

Binobarin, Botir firqa ruhi va ongiga tamomila begona bo'lmagan azaliy sezim va tushunchalar yana uning qalbi hamda tafakkuriga qaytadi, amaliga ko'chadi. Chunki qalbning tilagi anglangach, parishonlik barham topadi. O'z-o'zi bilan kurashda qahramon gunohlariga iqror bo'ladi, o'zini nuqsonli ko'radi, savobga muhtoj ekanligini, yetarli darajada qullik qila olmaganlini biladi. Bu esa uni mantiqiy ravishda axloqini tuzatishga olib keladi.

Ko'rinadiki, har bitta roman matniga yashirin ma'nolar ko'lamini

his qilish, tafakurda qamray olish va anglash bizdan Sharq, xususan Jaloliddin Rumiyl falsafasini teranroq o'zlashtirishni ham talab etadi. Chunki san'at asari chin ko'ngildan rag'bat bildirilib, sevib o'rganilmasa, o'z jamolini ochmaydi. To'g'ri har qanday roman hayotiy va milliy-ruhiy ehtiyoj tufayli maydonga keladi. Ammo u individual tarzdagina anglanadi. Agar kimdir muayyan roman botinida pinhon ma'nolarni mavjud ko'lamdorligi darajasida his qilolmasa, tafakurida qamray olmasa, surat o'zgarmay qolaveradi. Ya'ni xaridori topilmagani bilan san'at asari go'zal mohiyatini yo'qotmaydi.

Demak, zamonaviy o'zbek romanchiligi yetakchi tamoyillarining milliy va jahoniy asoslaridan birini ilohiy ishq kuychisi Jaloliddin Rumiyning falsafiy – so'fiyona mushohadalari tashkil etadi. Zotan Rumiyl qarashlari Sharq falsafasi va hikmatining islomiy haqiqatlar bilan qo'shilgan inson ruhiyati dialektikasidir. Insonning o'z-o'zini, o'zligini va ilohini tanishida mazkur botiniyl ilmlar bayonnomasi muhim ahamiyat kasb etayotganligini zamonaviy o'zbek romanlaridagi rumiyona ruh ifodasini kuzatish ham tasdiqlamoqda.

Adabiyotlar

1. Jaloliddin Rumiyl. Ichindagi ichindadur. Turkchadan Ulubek Hamdam tarjimai, – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2003
2. Mavlono Jaloliddin Rumiyl. Masnaviyl Ma'naviyl, Olti jildlik. Forsiylndan Jamol Kamol tarjimai. – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining "Fan" va Eron Islom Respublikasi "Al-Xudo" xalqaro nashriyoti, O'zbekiston–Tehron, 2003–2004.
3. Omon Muxtor. Ishq ahli. "Sharq yulduzi", 2001., Birinchi fasl. – B. 17-69.
4. Xurshid Do'stmuhammad. Bozor. – Toshkent: "ShARQ" NMK Bosh tahririyati, 2000.
5. Alber Kamyu. Begona. Qissa va roman. – Toshkent: "Yozuvchi", 1995.
6. Asad Dilmurod. Fano dashtidagi qush. – Toshkent: "ShARQ" NMAK Bosh tahririyati, 2002.
7. To'xtamurod Rustam. Kapalaklar o'yini. – Toshkent: "ShARQ" NMK Bosh tahririyati, 2000.
8. Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. – Toshkent: "Minhoj", 2004.

9. Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. – Toshkent: “ShARQ” NMAK Bosh tahririyati, 2007.

10. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. – Toshkent: “ShARQ” NMAK Bosh tahririyati, 2001.